

ZIYORATGOHLARNING YOSHLAR MA’NAVIYATINI O`STIRISHDAGI O`RNI

Yo'ldashev Umirzoq Xamza o'g'li

O`zMU Tarix fakulteti magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.d., prof. **Yermetov Avaz Abdullayevich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada ziyoratgohlarning yoshlar ma’naviyatini o`stirishdagi o`rni to`g`risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье представлена информация о местах паломничества в духовности молодежи.

Annotation

This article provides information about the place of pilgrimage to the spirituality of young people.

Kalit so`zlar: Ziyoratgohlar, mozor, e`tiqod, odob, ahloq, madaniy meros, muzey, tarbiya, din.

2013-yilgacha bo`lgan ma’lumotlarga ko`ra, Respublikamiz hududidagi jami 3000 dan ortiq madaniy meros ob`ektlari, tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, arxeologik manzilgohlar, monumental yodgorliklar YUNESKO ro`yxatiga kiritilgan. Toshkent, Samarqand, Buxora, Xiva, Termiz, Qarshi kabi yirik shaharlarning tarixiy obidalari va ziyoratgohlari qayta ta`mirlanib, yurtimiz ahli, dunyo xalqlari ziyoratchilari va sayyohlari ko`rib, olam-olam ta`surot olib qaytadigan maskanlarga aylantirildi.¹²

¹² B.Ervaliyev va b.”O`zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari” 3-kitob.T. “Turon zamin ziyo”.2015.328-bet.

Talim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Dono xalqimiz ta’lim-tarbiyani uyg’unlikda olib borishni afzal biladi. “Bir bolaga yetti qo’shni ota-ona”, deyilishi bejiz emas. Farzand tarbiyasida oila hamda jamiyat birdek mas’ul hisoblanadi. Ulug’ allomalar bu mavzuga bot-bot e’tibor qaratgani, Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, deya ta’kidlaganida katta ma’no mujassam.

Jumladan, Amir Temur o’z vaqtida Yassaviya tariqati asoschisi bo’lgan Ahmad Yassaviyninng xotirasini abadiylashtirish maqsadida Turkiston shahri (hozirgi Qozog’iston Respublikasi)da maqbara bunyod ettirgan.¹³ Bu xalqimiz qadimdan o’tganlarning ruhini shod etish insonning eng oliy burchlaridan biri deb hisoblaganliklaridan dalolatdir. Hozirda ko’plab insonlar ziyorat qilish kabi ulug’ amallardan biri haqida unutib qo’ymoqdalar. Yoshlar ziyorat nimaligini, u qanday maqsadda va u qanday amalga oshirilishini deyarli bilmaydilar. Ziyoratgohlar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiluvchi omillardan biri, yurt kelajagini o’z zimmasiga olishga qodir avlodni voyaga yetkazishda ta’sirchan kuchga ega, shu sababli o’tganlarni ruhini shod etish, tabiatning go’zal va betakror tuhfaridan bahramand bo’lmoq uchun ziyoratni kanda qilmaslik kerak.

Ziyorat nima? Ziyorat-muqaddas joylarga mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish. Islom dini aqidasi ko’ra aziz avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borganda ularning ruhlaridan madad so’rashlik, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoizdir. Chunki bu kabi amallarni ro’yobga chiqarish faqat Ollohning ixtiyoridadir. Ziyorat qilinuvchilar payg’ambar bo’ladimi yoki tariqat shayxi bo’ladimi, ulardan najot so’rash o’rniga haqlariga duoyi xayr qilish, sadaqa ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etish o’rinlidir. Islomda shaxsga sig’inish shirk hisoblanadi. Muhammad (s.a.v.) ning o’zlarinng hadisi shariflarida aytganlar:

¹³ Eshov B.J. va A.A.Odilov “O’zbekiston tarixi” (I-jild).T.2013.340-bet.

“Qabrisonlarni ziyorat qilib turingizlar zero u oxiratlarini eslatadi”.¹⁴ Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi.

Ziyoratgohlarning soʻz boshimizda keltirgan didaktik xususiyati yoshlarning tarbiyasidagi maʼnaviy, ruhiy va ijtimoiy-siyosiy vazifalari toʻgʻrisida toʻxtaladigan boʻlsak:

1. Insonning aralashuvisiz tabiiy sharoitda paydo boʻlgan ziyoratgohlar (buloq-chashmalar, gʻorlar, shifobaxsh tuproqlar, noyob daraxtzorlar) odamlarni tabiatni sevishga, uning goʻzalliklaridan bahra olishga, estetik zavqni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Ziyoratgohlar (mozorlar, maqbaralar, tabiiy obʼektlar, meʼmoriy obidalar, tarixiy manzillar) uzoq-yaqindan ziyorat qilish uchun kelgan jamoat ahli uchrashadigan, oʻzaro madaniy aloqalar almashadigan nuqtadir.

3. “Ziyoratingiz qabul boʻlsin”, degan iborada kishilarning ezgu ishlarini ragʻbatlantirish, ularga xayrixohlik bildirish maqsadlari, hayotdagi orzu-umidlarining roʻyobga chiqishini istash ifodalangan.

4. Ziyoratgoh yosh avlod ongida savobli ishlar qilib dunyodan oʻtgan xosiyatli kishilarning soʻngi manzili obod va aziz joyga aylanadi, degan tushunchaning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

5. Ziyoratgohlar kishilarda boshqalarni eʼzozlash tuygʻusini tarbiyalaydi. Himmatli odamlar issiq-sovuq ob-havo, qor, yomgʻir tasirida buzilib ketgan qabrlar oʻrnini qayta taʼmirlab, topishga oson qilib qoʻyishgan.

6. Bir odamning oʻziga yaqin marhum qabrini ziyorat qilib ketishi boshqalarga ham odatga aylanib brogan. Bora-bora ziyorat qilish mavsumiy yoki doimiy urf-odatga aylangan.

7. Bir xalqning ziyoratgohi sayyoh boʻlib kelgan boshqa xalqlar uchun ibrat va tajriba almashish vazifasini oʻtaydi.

¹⁴ Imom Gʻazoliy “Qirq Hadisi Qudsiy”. Toshkent Islom Universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2008. 1-bet.

8. Ziyoratgohlar ajdodlardan meros bo'lib kelgan urf-odat, bayram, sayl va hordiq chiqarish kabi an'analarni o'zida saqlaydi.

9. Ziyoratgohlar o'zi joylashgan qishloq va shaharlarning obod va fayzli bo'lishiga, nufuzini oshirishga hissa qo'shadi.

10. Ziyoratgohlar me'morlar, dizayner va san'atkorlarga ijodiy ilhom bag'ishlaydi, yangi ijod na'munalarining yaratilishiga turtki beradi.

11. Ziyoratgohlar mahalliy va xalqaro sayyohlik tizimi uchun harakat dasturi ishlab chiqish va amaliy ishlar qilish uchun manba hisoblanadi.

12. Ziyoratgohlar sayyohlarning tarixiy, ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshiradi. Ular ochiq muzey, darsxona, ma'naviy poklanish maskani.¹⁵

Adabiyotlar

1. B. Ervaliyev va b. "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari" 3-kitob. T. "Turon zamin ziyo". 2015. 328-bet.

2. Eshov B.J. va A.A. Odilov "O'zbekiston tarixi" (I-jild). T. 2013. 340-bet.

3. Imom G'azoliy "Qirq Hadisi Qudsiy". Toshkent Islom Universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. T. 2008. 1-bet.

4. B. Ervaliyev va b. "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari" 3-kitob. T. "Turon zamin ziyo". 2015. 330-bet.

¹⁵ B. Ervaliyev va b. "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari" 3-kitob. T. "Turon zamin ziyo". 2015. 330-bet.